

## RAQAMLI AVLOD LIRIKASI

**Normatova Dilnoza Shomurod qizi,***Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
4-bosqich talabasi**Email: [normatovadilnoza21@gmail.com](mailto:normatovadilnoza21@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiya vositalarining zamonaviy o'zbek adabiy jarayoniga, xususan, yoshlar she'riyatiga ko'rsatayotgan ta'siri tadqiq etilgan. Tadqiqotda "raqamli avlod lirikasi" va "blog she'riyati" kabi yangi adabiy hodisalarning nazariy asoslari, ularning an'anaviy poetik shakllar bilan aloqadorligi hamda o'ziga xos transformatsiyasi ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Internet muhitida shakllangan poetik tafakkurning asosiy belgilari sifatida tezkorlik, minimalizm va vizuallik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada zamonaviy yosh shoirlar ijodidagi onlayn yolg'izlik, virtual muhabbat va ruhiy iztirob motivlari Faxriyor, Suhrob Ziyohamda Dadaxon Muhammadiyev kabi ijodkorlar she'riyati misolida ochib berilgan. Maqola yakunida blog she'riyatining o'zbek adabiyotshunosligidagi o'rni va istiqbollari haqida xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli avlod lirikasi, internet muhiti, blog she'riyati, poetik tafakkur, vizuallik, onlayn yolg'izlik, virtual muhabbat, raqamli subyekt, fragmentarlik, zamonaviy o'zbek she'riyati.

**Аннотация.** В данной статье исследуется влияние информационных технологий и средств цифровой коммуникации XXI века на современный узбекский литературный процесс, в частности, на поэзию молодежи. В работе научно освещены теоретические основы таких новых литературных явлений, как «лирика цифрового поколения» и «блог-поэзия», их взаимосвязь с традиционными поэтическими формами и специфика их трансформации. В качестве основных признаков поэтического мышления, сформировавшегося в интернет-среде, проанализированы такие характеристики, как оперативность, минимализм и визуальность. Также в статье на примере творчества таких поэтов, как Фахриюр, Сухроб Зиё и Дадахон Мухаммадиев, раскрыты мотивы онлайн-одиночества, виртуальной любви и душевных страданий. В завершение статьи представлены выводы о месте и перспективах блог-поэзии в узбекском литературоведении.

**Ключевые слова:** лирика цифрового поколения, интернет-среда, блог-поэзия, поэтическое мышление, визуальность, онлайн-одиночество, виртуальная любовь, цифровой субъект, фрагментарность, современная узбекская поэзия.

**Abstract.** This article investigates the impact of 21st-century information technologies and digital communication tools on the modern Uzbek literary process, specifically youth poetry. The study provides a scientific examination of the theoretical foundations of new literary phenomena such as "digital generation lyrics" and "blog poetry," their connection to traditional poetic forms, and the specific nature of their transformation. Key characteristics of poetic thinking formed within the internet environment—including speed, minimalism, and visuality—are analyzed. Furthermore, the motives of online loneliness, virtual love, and psychological distress are explored through the works of poets such as Faxriyor, Suhrob Ziyohamda Dadaxon Muhammadiyev. The article concludes with assessments regarding the role and prospects of blog poetry within Uzbek literary criticism.

**Keywords:** digital generation lyrics, internet environment, blog poetry, poetic thinking, visuality, online loneliness, virtual love, digital subject, fragmentarity, modern Uzbek poetry.

**Kirish.** XXI asr axborot texnologiyalari adabiy jarayonning shakl va mazmunini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda adabiyot an'anaviy nashrlardan virtual makon – ijtimoiy tarmoqlar va bloglar ekotizimiga ko'chishi natijasida "raqamli avlod lirikasi" hamda "blog she'riyati" kabi yangi adabiy hodisalar yuzaga keldi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi raqamli muhitda shakllangan yoshlar she'riyatining vizual va multimodal

xususiyatlarini, shuningdek, zamonaviy lirik subyektning yangicha badiiy tafakkur namunalarini ilmiy tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Adabiy jarayonda an'ana va yangilik dialektikasi hamisha markaziy ilmiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Atoqli adabiyotshunos olim Mixail Baxtin badiiy ijodning tarixiy rivojlanishini izohlar ekan, uning fikricha, har bir yangi adabiy hodisa o'tmish an'alariga tayanadi va ular bilan o'ziga xos muloqotga kirishadi; u o'tmish tajribasini inkor etmaydi, balki yangi davr ruhidan kelib chiqib, yangi ma'no va ifoda shakllarini yaratadi. O'zbek adabiyotshunosligida bu masalaga olim N. Karimov alohida e'tibor qaratib, yangilikni an'anadan uzilgan hodisa deb emas, balki uning zamonaviy talqini va badiiy takomili sifatida baholash lozimligini uqtirgan. Shuningdek, xalqaro miqyosda K. Kovalik va J. Kurvud kabi olimlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlardagi she'riyat (xususan, #Instapoetry) hodisasi chuqur o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida raqamli platformalarning she'riyat estetikasi, vizual dizayn va lirik subyekt identifikatsiyasiga ta'siri batafsil tahlil qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Adabiy jarayonda an'ana va yangilik dialektikasi M.Baxtin konsepsiyasiga ko'ra, o'tmish tajribasini inkor etmagan holda yangi ma'no va shakllar bilan boyitishni nazarda tutadi. O'zbek adabiyotshunosligida N. Karimov yangilikni an'ananing zamonaviy talqini va takomili sifatida asoslagan bo'lsa, xalqaro miqyosda K.Kovalik va J.Kurvud raqamli platformalarning she'riyat estetikasi hamda lirik subyekt identifikatsiyasiga ta'sirini tadqiq etganlar. Marshall Maklyuen esa axborot muhiti o'zgarishi insonning fikrlash uslubini transformatsiya qilishini ta'kidlab, raqamli platformalarning badiiy strukturaga ta'sirini asoslaydi. Genri Jenkinsning "konvergentsiya madaniyati" nazariyasi esa ijodkor va auditoriya muloqotining yangicha ishtirokchilik xarakterini belgilaydi. Mazkur ilmiy qarashlar yosh shoirlar ijodidagi transformatsiyalarni o'rganishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tahlillar va natijalar.** Avvallari adabiy asarlar, asosan, bosma nashrlar – kitoblar, gazetalar va jurnallar orqali tarqalgan bo'lsa, bugungi kunda internet bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtirdi.


Internet muhitining asosiy afzalliklaridan biri ijodkor va o'quvchi o'rtasidagi bevosita muloqotning paydo bo'lishidir. Endilikda shoirlar o'z she'rlarini ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib, o'quvchilar fikrini darhol bilish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa adabiy jarayonning yanada faol va interaktiv bo'lishiga xizmat qilmoqda. Raqamli muhit orqali yosh shoirlar ijodidagi poetik tafakkurning yangi bosqichga qadam qo'yishi bir necha belgilar orqali yuzaga chiqadi.

Elektron axborot muhiti ta'sirida shakllangan poetik tafakkur transformatsiyasining birinchi belgisi – tezkorlik. Internet muhitida she'r uzoq muddatli tahrir, qayta ishlash, nashr kutish jarayonidan o'tmaydi, aksincha, his-hayajon va ruhiy kechinmaning deyarli bir vaqtning o'zida matnga aylanishi kuzatiladi. Bu holat she'riyatni kundalik hayotga yanada yaqinlashtiradi. Ikkinchi belgi – dialogik tabiatning kuchayishi. Fikr-mulohaza,

izoh, repost, muhokama she'ning ijtimoiy yashashini kuchaytiradi. Bu holat yangi media sharoitida ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi chegaralar kamayishini ko'rsatadi. Demak, internet she'riyati yakka ijod emas, u ko'p hollarda jamoaviy qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy jarayonga aylanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar muhiti orqali yuzaga kelgan navbatdagi poetik tafakkurdagi o'zgarish – vizuallik. Ayniqsa instagram, telegram va boshqa ijtimoiy platformalarda she'r matn bilan birga fon rasmi, shrift, satr joylashuvi, dizayn va ba'zan audio yoki video bilan birgalikda taqdim etiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda faqat semantik qatlam emas, balki ko'rish orqali qabul qilinadigan estetika ham muhimlashganini ko'rsatadi. Demak, internet muhiti she'riy tafakkurni nafaqat mazmun, balki vizual shakl darajasida ham transformatsiya qilmoqda.

Axborot olami natijasida paydo bo'lgan keyingi badiiy tafakkur bosqichlaridan biri – minimalizm va tanib olinadigan uslub. Ko'plab blogger shoirlar o'z sahifalarida bir xil rang, bir xil shrift, bir xil format va bir xil fondan foydalanadi. Natijada sahifa oddiy postlar to'plami emas, balki muallifning vizual imzosiga aylanadi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, blog she'riyatida muallifning "ovoz"i bilan birga uning "ko'rinishi" ham shakllanadi. Xususan, shoirning profil rasmi, bio matni, pinned postlari, story uslubi, cover dizayni ham umumiy poetik muhit yaratadi. Shu sababli blog she'riyatida alohida she'r emas, balki butun sahifa birgalikda bitta estetik tajriba hosil qiladi. Bu esa blog she'riyatini an'anaviy nashr poeziyasidan farqlab turadigan juda muhim xususiyatdir. Demak, blog shoiri quyidagicha poetik brend yaratadi:



Ushbu belgilar internet olami badiiy idrok shakliga nafaqat tashqi ta'sir ko'rsatuvchi omil, balki she'ning ichki strukturasi, ritmi, ifoda usuli va o'quvchi bilan munosabatini qayta tashkil etuvchi madaniy makon sifatida baholanishi mumkin. Bu yerda yangilik faqat texnik vositada emas, balki she'ning yashash shaklida namoyon bo'ladi.

Kitobxonlik vaqtlarini soatlab elektron vositalar qarshisida o'tkazadigan raqamlashgan avlodning emotsional va ichki ruhiy olamini o'rganish bu she'rxonga berilayotgan ma'lumotlarni ularning holatiga moslashtirilishi, o'quvchining didi va

tabiatiga xos tarzda taqdim etilish holatlari yosh shoirlar, xususan, ommaviy blog yurituvchilar orasida keskin koʻzga tashlana boshlandi. Bu holat esa quyidagi mavzular doirasida keng muhokamalar shakllanishiga olib kelmoqda:

Onlayn yolgʻizlik. Onlayn makon doimiy aloqadorlik taassurotini uygʻotadi: foydalanuvchi har lahza kim bilandir yozishishi, kimningdir postini koʻrishi, izoh qoldirishi mumkin. Ammo mazkur doimiy ulanish holati ichki yolgʻizlikni bekor qilmaydi, aksincha, koʻproq uni yolgʻiz his qildiradi. Shuning uchun raqamli avlod lirikasi koʻpincha “hamma bilan bogʻlangan, lekin hech kim bilan chin maʼnoda birga emas” degan ruhiy paradoksni ifodalaydi. Bu sheʼriyatda sukut, javobsiz xabar, “seen”, “oxirgi kirgan vaqti”, “typing...” kabi mayda digital belgilar ham poetik detalga aylanishi mumkin. Bunday detal anʼanaviy sheʼriyatdagi maktub, hijron yoki intizorlik motivining raqamli ekvivalentidir. Bu yerda yangi narsa – holatning texnologik ramzlar orqali ifodalanishidadir. Yosh shoirlarimizdan Dadaxon Muhammadiyev “Yolgʻizlik shovqini tutdi olamni” deya oʻz qarashlarini ijodi orqali bayon qilishga intiladi. Faxriyorning ushbu misralari esa chinakam yolgʻizlik umidlar ketganidan keyin boshlanishini ifodalaydi:

Daraxtday jussamdan toʻkilar xazon.

Xuddi choʻkayotgan kemaday bukun –

Mendan qocha boshlar umidlar – jazo,

Ezib borar umidsizliklar yuki. (Faxriyor) [2,32]

Virtual muhabbat. Zygmunt Bauman zamonaviy munosabatlarni “liquid love” [4] holat, yaʼni mustahkam emas, oʻtkinchi va nozik bogʻlanishlar sifatida sharhlaydi. Uning bu qarashi internet davridagi sevgi poetikasini tahlil qilishda ayniqsa muhim. Virtual muhabbat poetikasida yaqinlik tez hosil boʻladi, ammo u tezda yemirilishi ham mumkin, aloqaning soddalashuvi hissiy xavfsizlikni emas, aksincha, beqarorlikni kuchaytiradi. Natijada raqamli lirikada sevgi koʻpincha “yetib boʻlmaydigan”, “ekranda bor, hayotda yoʻq”, “koʻrinadigan, lekin ushlanmaydigan” hodisa sifatida talqin etiladi. Bu ham anʼanaviy ishqiy lirikadan farqli ravishda zamonaviy ruhiy-ijtimoiy tajribaning poetik shaklidir. Faxriyorning “Onlayn hayot” sheʼrida zamonaviy insonning virtual makon bilan bogʻliq hayoti badiiy ifoda topgan. Sheʼrda internet, onlayn muloqot va raqamli muhit insonning kundalik turmushiga qanday kirib borgani poetik obrazlar orqali koʻrsatiladi. Bu esa raqamli madaniyatning adabiyotda aks etishini namoyon etadi.

Kun kelar, bir like-ni tanlar qiz,

nikoh oʻqittirar oʻshanga.

Toʻy virtual boʻladi soʻzsiz,

Biror website boʻlar goʻshanga.

Urfdan chiqib ketdi gilamlar,

Like-dan bola koʻradi ayol.

Dam bu damdir – online damlar,

Omon boʻlsin virtual hayot. (Faxriyor) [2,33]

**Xulosa.** Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar o'zbek she'riyatini tubdan yangilamoqda. Buni quyidagi to'rt omilda ko'rish mumkin: 1) nashriyot kabi vositachilardan xalos bo'lgan she'riyat endilikda ijodkor va o'quvchi o'rtasidagi tezkor hamda jonli muloqot jarayoniga aylandi; 2) shu bilan birga, shrift, fon va dizayn kabi vizual detallar ham estetik ahamiyat kasb etib, muallifning yaxlit poetik brendini shakllantirishga xizmat qilmoqda; 3) zamonaviy lirikada insonning ijtimoiy tarmoqlardagi "onlayn yolg'izlik" va beqaror "virtual muhabbat" kabi murakkab ruhiy ziddiyatlari o'zining haqqoniy ifodasini topmoqda; 4) blog she'riyati an'anaviy adabiyotning tanazzuli emas, balki adabiyotshunoslik fani oldiga mutlaqo yangi vazifalar qo'yuvchi qonuniy evolyutsion bosqich hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Faxriyor. Geometrik bahor. – T.: "Ma'naviyat", 2004. – 192 b.
2. Faxriyor. Izlam. – Toshkent: Akadernashr NMM, 2016. – 368 b.
3. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi va nazariyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2008. – 320 b.
4. Zygmunt Bauman. Liquid Love: On the Frailty of Human Bonds. Cambridge: Polity, 2003. – 176 p.

